

Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)

E-mail. jamahmatovkaromiddin@gmail.com

Tel: +998991315193

UDK: 811.512.131

**CHAG'ONIYON ADABIY MAKTABIDA MOTURIDIYLIK TA'LIMOTI
TA'SIRI (SO'FI OLLOYOR ILMIY-MA'NAVIY MEROSI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chag'oniyon ilmiy-adabiy maktabida ijodiy faoliyat olib borgan buyuk mutasavvif olim va shoir So'fi Olloyorning ilmiy merosidagi moturidiylik ta'limoti ta'siri qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, muallif qalamiga mansub "Sabotul ojizin" asaridagi kalom ilmiga bog'liq mavzular tahlil etilib, Imom Moturidiyning "Kitob at-tavhid" asari bilan mavzudoshlik jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Kalom, aqoid ilmi, moturidiylik ta'limoti, Chag'oniyon, Samarqand, Imom Nasafiy, "Sabotul ojizin", ijodiy faoliyat, ilmiy-adabiy manba.

Жамахматов Каромиддин Айнулло угли

Докторант (DSc), Ташкентский государственный университет узбекского
языка и литературы имени Алишера Навои

Э-почта: jamahmatovkaromiddin@gmail.com

Тел: +998991315193

**ВЛИЯНИЕ МОТУРИДИЙСКОЙ ТЕОЛОГИИ В ЧАГАНИЙНСКОЙ
ЛИТЕРАТУРНОЙ ШКОЛЕ (НА ПРИМЕРЕ НАУЧНО-ДУХОВНОГО
НАСЛЕДИЯ СУФИ АЛЛОЁРА)**

Аннотация: В данной статье сравнительно исследуется влияние мотуридийской теологии на научное наследие великого мистического ученого и поэта Софи Аллойора, который активно работал в чагантийской научно-литературной школе. Кроме того, анализируются темы, связанные с каламом (наукой о теологии) в произведении Суфи Аллоёра «Саботул

Ожизин», с тематическими сравнениями с «Китаб ат-Тавхид» Имама Мотуриди.

Ключевые слова: Калам, наука о вероучении, мотуридийская теология, Чаганиян, Самарканд, Имам Насафий, «Саботул Ожизин», творческая деятельность, научно-литературные источники.

Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li

Doctoral Candidate (DSc), Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek

Language and Literature

Email: jamahmatovkaromiddin@gmail.com

Phone: +998991315193

**THE INFLUENCE OF THE MOTURIDI THEOLOGY IN THE
CHAGHANIYAN LITERARY SCHOOL (THE CASE OF SUFI
ALLOYOR'S SCIENTIFIC AND SPIRITUAL LEGACY)**

Abstract: This article comparatively examines the influence of Moturidi theology on the scientific legacy of the great mystic, scholar, and poet Sufi Alloyor, who was active in the Chaghaniyan scholarly-literary school. Furthermore, topics related to Kalam (the science of theology) in Sufi Alloyor's work "Sabotul Ojizin" are analyzed, with thematic comparisons drawn to Imam Moturidi's "Kitab at-Tawhid".

Key words: Kalam, aqeedah science, Moturidi Theology, Chaghaniyan, Samarkand, Imam Nasafi, "Sabotul Ojizin", creative activity, scholarly-literary sources.

Kirish.

Abu Mansur Imom Moturidiy o'z davrining yirik mutakallimi va islom olamining mashhur olimi sanaladi. Alloma o'zining noyob asarlari bilan islom dinidagi sog'lom e'tiqodni saqlash uchun ko'plab asarlar yozgan. Ahli sunna val jamoa aqidasiining yirik tarmog'i bo'lgan – moturidiylik ta'limotini butun dunyo musulmonlariga islomning tayanchi sifatida o'rgatilishi allomaning rabboniy olim ekanligidan dalolat beradi.

Imom Moturidiy butun Islom olamida o'zining serqirra va boy ilmiy merosi bilan zamondosh va keyingi davr ulamolarini hayratga solgan. Imom Moturidiyga Alloh taolo ilm yo'lida shunday farosat, aql va zakovatni berganki, asarlari asrlar osha musulmon o'lkalarida darslik sifatida o'qitilib kelinadi. Turli xil fitna va buzuvchi g'oyalarga aqliy va naqliy asosda Imom Moturidiy o'z zamonida adashganlarga raddiya bergani u kishining ilmga bo'lgan iste'dodidan darak beradi. "Ta'vilot al-Qur'on" asari butun musulmon olamida ixtiloflarga yechim topuvchi muhim aqidaviy asarlardan biridir. Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" asari haqida buyuk vatandoshimiz Abu Muin Nasafiy shunday deydi: "Ta'vilot al-Qur'on" – unga hech bir kitob teng kela olmaydigan asardir. Bu fan bo'yicha bundan avvalgilari yozgan kitoblarning birortasi ham unga yaqin kela olmaydi" [2].

Adabiyotlar tahlili.

Tarixdan ma'lumki, Imom Moturidiy asarlariga atab dunyoning ko'plab olimlari sharhlar yozgan. Ayniqsa, Moturidiy ta'limoti Movarounnahr, Xuroson mamlakatlarga keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Bunga Imom Moturidiyning izdoshlari ilmiy faoliyati hissasi beqiyosdir. Bu zotning ilmiy merosi haqida keyingi davr ulamolari ko'plab fikr mulohazalar bildirishgan. Toshko'prizoda "Miftahu-ssaoda" asarida Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosiga shunday baho bergan: "Ahli sunna val jamoaning kalom ilmidagi rahnamolari ikki kishidir. Biri hanafiy bo'lsa, ikkinchisi shofeiyydir. Hanafiy rahnamo Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Imomu-l-huda, Rais ahli sunna val jamoa Abu Mansur Moturidiydir. Shofeiyy rahnamo esa Shayx ahli sunna, Raisu-l-jamoa, Imomu-l-mutakallimin Abul Hasan Ash'ariy Basriydir" [8].

Albatta, Imom Moturidiy asos solgan maktab bugun Movarounnahrda Moturidiylik ta'limotiga zamin yaratdi. Bu zot o'zining "Kitobut tavhid" va "Ta'vilot-al Qur'on" asarlari bilan dunyoga moturidiylikni keng tarqalishiga zamin yaratadi.

Moturidiylik ta'limotini yoyilishiga uning shogirdlari Abul Hasan Rustug'faniy (vaf. 350/961 y.), Abu Salama Samarqandiy, Abu Isma Buxoriy, Abu

Ahmad Iyodiy, Abu Bakr Iyodiy, Abdulkarim Pazdaviy, Hakim Samarqandiy, Abul Muin Nasafiy, Abdulyusr Pazdaviy kabi ulug' zotlarning ilmiy faoliyati tahsinga sazovor. Keyingi davr mutafakkirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'z asarlarida "zamonning a'lam ulamosi", "sultonul muizzin" nomlari bilan tilga olganlar. Bu kabi tavsiflar Moturidiyning ilmiy faoliyati haqida juda ko'p misol keltirish mumkin.

Ma'lumki, Movarounnahr ulamolari islom dinini ilmu ma'rifat dini sifatida targ'ib qilib kelishgan. Shuning uchun Termiziylar, Chag'oniylar, Nasafiylar, Shoshiylar, Samarqandiylar va Buxoriylar taxallusi bilan yozilgan minglab asarlar dunyo yuzini ko'rdi. So'fi Olloyor ham Imom Moturidiyning yetuk izdoshi sifatida o'z asarlarini tasavvuf, fiqh, kalom yo'nalishida yozdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola So'fi Olloyor ilmiy-ma'naviy merosida moturidiylik ta'limotining namoyon bo'lishi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, mavzuni yoritib berishda germeneytik tahlil, analiz, sintez, analogik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

So'fi Olloyorning aqida va kalom yo'nalishida yozilgan "Sabotul ojizin" asarida Moturidiylik ta'limoti, ahli sunna val-jamoaga ergashish zarurati haqida to'xtalib o'tadi:

Jamaot ahli sunnat tuzgan erlar,

Derlar: turfa nozikdur bu yo'llar.

Ulug' yo'lni qo'yib o'lguncha ey yor,

Qadam qo'yma toyar yerlarga zinhor [3].

Bu yerdagi ulug' yo'ldan muroda "ahli sunna val jamoa" yo'lidir. Ahli sunna val jamoaga ergashish ilohiy rahmatga sabab bo'lishi, hamda aqoid ilmi ulamolarning fikri bo'yicha "jamoat bilan birga bo'lishda ilohiy rahmat va savob borligi, jamoadan ayro bo'lib yo'rishda toyilish borligi aytib o'tilgan". Imom Moturidiy ahli sunna val-jamoaga yo'lini mustahkam, ishonchli, sof yo'l sifatida asarlarida tushuntiradi.

So‘fi Olloyor o‘z asarlarini Imom Moturidiyning moturidiylik ta‘limoti asosida shakllantirganini quyidagi jihatlardan aniqlash mumkin. Xalqul af‘ol – Alloh taolo bandalarning fe‘lini o‘zi yaratgan. Banda o‘z fe‘lini yaratishga qodir emas. Balki Alloh taolo yaratgan fe‘lni kasb etadi. Bunday olganda Alloh fe‘llarning xoliqi bo‘lsa, bandalar uning kosibidir. So‘fi Olloyor aytadi:

*Xaloyiqning jam‘i fe‘lu qavli,
Emas bir zarrai betaqdiri Mavli.*

Imom Moturidiy “Ta‘vilot” asarida bandaning fe‘lini Alloh taolo yaratishini ochiq oydin bayon etib, o‘z davrida adashgan oqimlarga naqliy va aqliy dalillar bilan raddiya beradi [4].

*Zarardur, naf‘dur yo xayr shardur,
Yaqin bilgil qazo birla qadardir [4].*

“Fiqhul akbar” sharhida Mulla Ali Qori qazo va qadarni shunday ta‘riflaydi: “Qazo va qadar yaratish ma‘nosidadir. Yaxshini ham yomonni ham Alloh taolo yaratadi. Yaxshinining yaxshiligi, yomonning yomonligi, achchiqning achchiqligi, shirinning shirinligi Allohdan bo‘ladi” [6].

Imonning ko‘payishi va kamayishi borasida So‘fi Olloyor moturidiylik e‘tiqodini o‘ziga xos bir nazmiy uslubda keng kitobxonga tushutirishgan intilgan.

*Yaqin bilgilki, iymon bo‘lmagay kam,
Erur birdek, ziyoda bo‘lmagay ham.
Bu so‘zdir ahli sunnatni tariqi,
Jadal etdi bu so‘zda har fariqi.
Bo‘lur ammo amal zoyidu nuqson,
Topar yaxshi amaldin ajr inson [4].*

Imom Moturidiyning keyingi izdoshlari Mulla Ali Qori “Fiqh ul-akbar” sharhida aytadiki: “Imon ko‘paymaydi ham, kamaymadi ham. Chunki imon qalb bilan tasdiqlash va til bilan iqror bo‘lishdir” [6].

Jabr va ixtiyor mavzusi haqida kalom ilmi olimlari tomonidan turli xil ta‘riflar berilgan. Biroq eng mo‘tadil va to‘g‘risi moturidiylar va ash‘ariylar tomonidan bayon etilgan. Ma‘lumki, moturidiylik ta‘limotida Imom A‘zamning

“Fiqhul akbar” asari ta’siri benihoya. Jabr va ixtiyor masalasida shunday deyilgan: “Alloh taolo bandalaridan birortasini kufrga ham, imonga ham majburlamgan. Ularni mo‘min yoki kofir etib yaratmagan. Lekin ularni shaxs qilib yaratgan. Imon va kufr bandalarning fe’lidir” [6]. So‘fi Olloyor aytadiki, bizga Alloh taolo ixtiyor ne’matini bergan, banda o‘z ixtiyori bilan yaxshilik yoki yomonlikka qarab yo‘l olishi mumkin. Yaxshilikka intilsa Allohning roziligi, yomonlikka intilsa, Allohning g‘azabiga giriftor bo‘ladi.

Agarchendeki qo‘ymas erkimizga,

Beribdir ixtiyori juz’iy bizga [3].

Bandalarning amallarini Alloh taolo o‘zi yaratadi, biroq juz’iy ixtiyorni ularga beradi. Tanlash insonning o‘ziga bog‘liq. Soddaroq qilib tushutiradigan bo‘lsak, Alloh taolo bandalar fe’lining Xoliqi va insoniyat esa kosibdir. Bandalarning barcha amallari harakat va turishlari haqiqatda ularning kasblaridir.

Alloh bandalariga hech qachon zulm qilmaydi. Balki bandaning toqatiga qarab uni mukallaf qiladi. To‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘lni O‘z Kitobi bilan ochiq-oydin ko‘rsatdi. Banda toqatidan kelib chiqib unga rioya etishi zarur.

So‘fi Olloyor o‘z asarida sog‘lom e’tiqod bilan bog‘liq barcha masalalarni she’riyat uslubi bilan xalq tilida tushuntirishga erishgan. Imom Tahoviy aytadi: “Alloh taolo ularni toqatlari yetadigan narsadan boshqaga taklif etmagandir. Ular U Zot taklif qilgan narsagagina toqat qilurlar” [5].

Xudo zulm etmadi hech bandalarga,

Vale tuz yo‘lni ko‘rsatdi alarga [3].

Alloh taolo yaxshilik va yomonlikni O‘zi yaratadi. Yaxshi ish fazilat va oliy mukofotlarga sabab bo‘lishi hamda yomon ish razillik va jazoga vosita bo‘lishi Kitob va Sunnat asosida ochiq aytib o‘tilgan. Alloh taolo olamni yaratishda ilohiy hikmat borligi ma’lum. Yaxshi ish ham yomon ishni ham Alloh taolo yaratishning hikmatini ishning oxirida ko‘rinadi. Yaxshi ish deb o‘ylagan narsalar ba’zida yomon ish bo‘lib chiqishi mumkin. Yomon deb qaralgan narsa aslida yaxshi bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun Imom Moturidiy aytadi: “Buning asli shuki, olamdagi biror narsani ko‘rsangiz, albatta unda ajib hikmat, go‘zal dalil bor.

Hakimlar uning mohiyatini idrok qilish va qanday qilib bunday bo‘lib qolganini anglashdan ojiz qoladilar” [1].

*Munosib ish erur yo nomunosib,
Ani qilmoqqa banda bo‘ldi kosib.
O‘shancha ixtiyori juz‘iydin boz,
Topar banda jazo ko‘p qilsa yo oz.
...Xudo rozi emas isyonimzga,
Rizosidir Ani ehsonimizga [3].*

So‘fi Olloyor “Sabotul ojizin” asarida musulmon kishining e‘tiqodini ahli sunna val jamoa ulamolarning asarlari asosida teran xulosalar va muxtasar bayonlar bilan nazmiy uslubda qayd etadi. Asarda kelgan navbatdagi baytlarda ham mutafakkir nazm yo‘li bilan e‘tiqodiy masalalarni keng yoritib beradi.

Iroda borasida Imom Moturidiy “Tavhid” kitobida keltiradi: “Bizning nazdimizda irodaga dalolat bu – haqiqati bir-biridan tafovut qilishiga qaramasdan, hikmatga, Allohning yagonaligiga dalolat qilgan holda maxluqotning yuzaga chiqishidir. Bu esa bir narsaning qanday bo‘lsa, shunday holida bo‘lishini iroda etishga dalolat qiladi” [1].

*Iroda qilsa ul Hayyi tavono,
Qilur bir lahzada bilmasni dono [3].*

Allohning irodasi bilan butun dunyo nizomi tartibga kelgani hamda maxluqotlar Allohning irodasidan tashqariga chiqmasligi ayni haqiqatdir. Narsa qanday bo‘lsa, shunday holida bo‘lishni U zot iroda qiladi. Hatto inson oyog‘iga qadalgan tikon ham Uning irodasidan tashqarida emas.

*Qadalsa bir tikan yo tushsa bir qil,
Irodasiz emas hech ish – yaqin bil [3].*

Allohning qudrati tafakkur qilinadi, biroq Uning zoti tafakkur qilinmaydi. Chunki U Zot hech bir maxluqotga o‘xshamaydi. Misli va o‘xshashsiz Yagona ilohdir. So‘fi Olloyor ham aytadiki, ey inson farzandi Uning qudrati va san‘atini tafakkur et, lekin Zotini tafakkur etma.

Vale fikr et Xudoning qudratiga,

Ajoyib ishlariga, san'atiga [3].

Allohga taologa qul, makon va boshqa maxluqotlarga xos bo'lgan jihatlar bilan jismu makonni nisbat berishni ahli sunna val-jamoa ulamolari qattiq tanqid qilgan. Imom Moturidiy bu borada shunday deydi: "Insonning "U qayerda?" deb so'rashi makon haqida so'rash hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, U Zot bundan pokdir. Alloh taolo narsalarga masofa jihatidan "yopishish" yoki ulardan "ajrash", shuningdek ularning ichiga "tushish" va ulardan "chiqish" kabi sifatlar bilan sifatlanmaydi" [1]. Shu sababli, narsaga dalolat qiluvchi narsa bilan Alloh sifatlanmyi. "Yad" masalasining qandayligi, uning kayfiyatiga kirishilmaydi. Alloh taolo Qur'oni karimda nimana iroda qilgan bo'lsa, biz shunga imon keltiramiz.

Na etsa, erki boru qudrati bor,

Qo'li birla yaratdi, dema zinhor [3].

Allohning mislsiz jamolini ko'rish bayonida "Fiqhul akbar" sharhida "Bu dunyoda Alloh taoloni ayon ko'rish mumkin emas. Chunki bu dunyo foniidir. Oxirat esa boqiydir. Ahli sunna olimlari bu dunyoda hech kim Alloh taoloni ko'rolmaydi, deyishgan" Ardabiliy "Al-Anvar" asarida bunday deydi: "Bir kishi agar dunyoda "Men Allohni ko'zim bilan ko'ryapman", yoki "Alloh men bilan so'zlashmoqda" desa, haqiqatda dindan chiqar. Ya'ni unday kimsa yo'ldan adashgan, ozgandir, yomonlardandir". Darhaqiqat bu kabi so'zlarni aytish uchun inson sog'lom aql sohibi bo'lmasligi kerak. Alloh taoloni inson zoti bu dunyoda ko'rolmasligini So'fi Olloyor qisqa bayonlar bilan izoh berib o'tadi:

Tirilsang oxiratda ey xaridor,

Xudoyim ko'rsatur do'stlarga diydor

Vale ko'rmakni bechunu chunon bil,

Jihatsiz, mislsiz bil, bemakon bil [3].

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, So'fi Olloyor XVII-XVIII asrlarda Movarounnahr zaminda Moturidiylik maktabida shakllangan ta'limotni nazm va nasr yo'li bilan xalqchil tilda bayon etishga erisha olgan ulug' olimlardandir. Uning qalamiga mansub "Maslakul muttaqin", "Sabotul ojizin", "Murodul orifin",

“Maxzanul mute’in” asarlari sogʻlom e’tiqodni tasavvufiy, fiqhiy, e’tiqodiy va tarixiy nuqtai nazardan yoritgan. Imom Moturidiy ta’limotini Soʻfi Olloyor nazm yoʻli bilan bayon etishidagi yana bir hikmat – sogʻlom e’tiqodni avom xalq orasiga keng yoyilishga intilganidir. Buni mutafakkir xalq qalbiga tez kirib boradigan uslub – she’riyatdan va badiiy san’atlardan unumli foydalanganida koʻrish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid. Tarjimonlar: Alloqulov A., Abdurahmonov I., Yaxshilikov A. – Toshkent: Hilol nashr, 2024. – 518 b.
2. Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on (30 juz). Tarjimonlar: Alouddin Hofiy va boshqalar. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2021. – 536 b.
3. Hasan B. Risolai aziza. Sabotul ojizin sharhi. – Toshkent: Abdullo Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri, 2000. – 472 b.
4. Imom Moturidiy. Ta’vilotu ahli as-sunna. / 10 jild. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiya. – B. 114-115.
5. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut Tahoviyyaning sharhi talxiysi. Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. – 226 b.
6. Mulla Ali ibn Sulton Muhammad Qori. Al-Fiqh ul-akbar. Arab tilidan Muhammad Sharif Juman tarjimasi. – Toshkent: Munir, 2021. – 319 b.
7. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Sano standart” nashriyoti, 2019. – 618 b.
8. Ziyodov Sh. Imom Moturidiy. – Toshkent: «Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022. – 315 b.